O‘BEKISTON FLORASIDA *ZIZIPHORA PAMIROALAICA* JUZ. NING TARQALISHI, MORFOLOGIYASI VA EKOLOGIYASI

Mirzayeva S.T.
Andijon davlat universiteti

https://doi.org/10.5281/zenodo.14005110

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Labiatae Juss. (Lamiaceae Lindl.) - oilasi Ziziphora L. turkumiga mansub Ziziphora pamiroalaica Juz. o‘simligining dorivorlik hususiyatlari, tibbiyotda va tabobatda qo‘llanilishi, morfologiyasi, “O‘zbekiston milliy gerbariysi” (TASH) noyob ilmiy ob’ekti (TASH) gerbariy fondida saqlanayotgan namunalarining tahlili, O‘zbekiston florasida tarqalishi, ekologiyasi haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *lamiatseae, ziziphora, morfologiya, ekologiya, pulegone.*

Анататция. *В этой статье Labiatae Juss. (Lamiaceae Lindl.), Ziziphora pamiroalaica Juz. относится к семейству Ziziphora L. лечебные свойства растения, его использование в медицине и медицине, морфология, анализ образцов, хранящихся в гербарном фонде уникального научного объекта «Национальный гербарий Узбекистана» (ТАШ), распространение во флоре Узбекистана, данные по экологии.*

Ключевая слова: *lamiatseae, ziziphora, морфология, экология, пулегон.*

Abstract. *In this article, the medicinal properties of the plant Ziziphora pamiroalaica Juz., belonging to the family Ziziphora L., Labiatae Juss. (Lamiaceae Lindl.), morphology, unique scientific object of "National Herbarium of Uzbekistan" (TASH) (the analysis of samples stored in the TASH) herbarium fund, distribution in the flora of Uzbekistan, and ecology are given.*

Keywords: *lamiatseae, ziziphora, morphology, ecology, pulegone.*

Kirish

Mamlakatimiz hududi juda katta bo‘lib, turli iqlimli sharoitiga eaga bo‘lgan mintaqalarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz o‘simliklar dunyosi - florasi turli o‘simliklarga boy. Ularning ichida dorivorlari ham ko‘p bo‘lib, har yili ming tonnalab dorivor o‘simliklar mahsuloti tayyorlanadi hamda kasalliklami davolash va oldini olish uchun ishlatiladi[1].

Hozirgi kunda tabiiy holda o‘sayotgan dorivor o‘simliklarni zaxiralari insonlar ta’sirida kamayib bormoqda. Buning o’mini to‘ldirish va xalqimiz ehtiyojini qondirish maqsadida dorivor o‘simiiklar o‘sish joylarini va zahiralarini aniqlash, kimyoviy hususiyatlarini chuqur o‘rganish, iqlim o‘zgarishlari sharoitida ekologik tahlillarni olib borish va ko‘paytirish, ulami muhofaza choralarini izlab toppish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ziziphora L. turkumi turlari ham O‘zbekiston florasida keng tarqalgan efir moyli dorivor o‘simlik hisoblanadi. O‘zining kimyoviy tarkibiga ko‘ra turli hil kasalliklarda dorivor vosita sifatida foydalaniladi. Masalan, *Z.clinopodioidum* Lam. ning damlamasi isitma (liharadka), zotljam va bosh og‘rig‘ida, *Ziziphora tenuior* L. dezinteriya, urli hil gnekologik yallig‘lanishlarda, *Z. pamiroalaica* Juz. ning qaynatmasi esa antiaritmik va antigipertenziv hususiyti bilan yurak qon tomir kasalliklarini davolashda foydalaniladi[2].

O‘rganilgan adabiyotlar tahlili natijalariga ko‘ra *Ziziphora* L. turkumi turlari orasida efir moylari miqdorining ko‘pligi bo‘yicha *Z.clinopodioides* Lam, *Z.pedicellata* Juz. va *Z.pamiroalaica* Juz. alohida ahamiyatga ega [3]. Ammo *Z.pamiroalaica* Juz. ning tarqalish hududiding yani arealining kengligini hisobga oligan holda, ushbu maqolada *Z.pamiroalaica*

Juz. ning, morfologiyasi, “O‘zbekiston milliy gerbariysi” (TASH) noyob ilmiy ob’ekti (TASH) gerbariy fondida saqlanayotgan namunalarining tahlili, tarqalishi, ekologiyasi haqida o‘rganishni maqsad qildik.

Ziziphora clinopodioides subsp. pamiroalaica (Juz.) Sennikov & Lazkov. – Pomir-oloy kiyik o‘ti.


in Checkl. Vasc. Pl. Tian-Shan: 352 (2021).

= Z. pamiroalaica Juz in V.L.Komarov, Fl. URSS 21: 668 (1954); Юзепчук во Фл. СССР 21: 339 (1954); Введенский во Фл. Узбекистана 5: 398 (1961); Никитина в Фл КиргизССР. 9: 150 (1960); Павлов в Фл КазахССР. 7: 436 (1964); Кочкарева в Фл ТаджССР. 8: 268 (1986); Шишкин в Фл ТуркмССР. 6: 214 (1954); Туляганова в Опр. раст. Ср. Аз. 9: 157 (1987).

Тип: E valle Alaj a S. Juzepczuk a 1930 lectus (LE).

Kimyoviy tarkibi: yer ustki efir moylari 0.28—0.79 %, efir moylari tarkibining 40-89 % pulegone, limonen, piperitanon 1, menton 3, oktan-1-ol-Z 1, пулегон 40—89, лимонен, fellandren, terpinolen, kariofllen, vitamin C [3]**.**

Morfologik tavsifi. Ko‘p yillik, 10-20 sm, poyasi ko‘p sonli, ko‘tarilgan, nozik, asos qismi yog‘ochlashgan, oddiy, juda mayda tukli, 10-20 sm. Barglari 2-1,5 mm uzunlikda, 1,5-7 mm. O‘rtacha enli lansetsimon, ba'zida deyarli aylana shaklida, to‘mtoq, yoki o‘tkir, pastki qismi birdan torayib ketgan, juda kalta bandli, butun, yalang‘och yoki juda yorqin mayda tukli.Gulosti yon barglari ellipssimon yoki keng ellipssimon, deyarli gul kosachaga teng. Gullari juda kalta (sal kam 1 mm) tik chiqqan tukli, momiq, ko‘p gulli, zich, sharsimon to‘pgulda poyaning va shohlarining uchida joylashgan. Gulyonbargchalari to‘g‘ri, tukli, juda mayda. Kosachalari (6)-7 mm, odatda binafsha rangda, uzun, kulrang tik qalin tukli, deyarli momiq, tishlari 1,5 mm cha. Gultojibarglari aftidan pushti-binafsharangda, 10-11 mm uzunlikda, gulkosachasidan sezilarli chiqib turadi, pastki lablarining ichki tamoni tuklangan, 5-6 mm kenglikda. Changdonlari gultojibarglarining yuqori labidan chiqib turadi (1-rasm). **IPNI:** 462008-1. **Fenologiyasi.**



Gullashi VI—VII; Mevalashi VIII.

1-rasm. *Z.pamiroalaica* Juz. (Boysun tog‘. tiz. Yakkatol qish.)



2-rasm. *Z.pamiroalaica* Juz. ning umumiy tarqalishi (Gbif.org asosida).


Uning vatani O‘rta Osiyo mintaqasidan, Shinjongacha cho‘zilgan[4]. Toksonomik o‘rganilmagan. Sennikov va Lazkov tamonidan 2021 yilda Qirg‘iziston florasi uchun ost tur

sifatida kritilgan [5]. Bu yarimbuta hayotiy shakliga ega tur mo‘tadil biomlarda jumladan, mayda tuproqda, shag‘alli, toshli yonbag‘irlarda, qoyalarda, toshloq va shag‘allarda keng tarqalgan. Bu turning TASH gerbariy fondida 50 dan ortiq namunalari mavjud. Ushbu gerbariy namunalari hududlar kesimida tahlil qilinganda 12 ta alohida botanik-geografik rayonlarda hamda dengiz sathidan 800-300 metrgacha bo‘lgan tog‘ tizmalarida uchrashi tasdiqlandi (3-rasm). Bundan tashqari A.S. Abduraimov (2021), U.H. Qodirov (2020), D.E. Azimova (2017), O.T. Turginov (2017), A.S. Esonqulov (2012), L.A. Botirova (2012), A.J.Ibragimov (2009), N.O.Sulaymonov (2008) va Z.U.Muzaffarova (1993) lar tamonidan lokal floralarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham *Z.pamiroalaica* Juz. ning Tyan-Shan va Pomir-Oloy tizmalarida tarqalganlagi ko‘rsatilgan hamda floralar konspektiga kiritilgan.

O‘rta Osiyo bo‘yicha tarqalishi: Surxon-Sherobod vodiysi, Zarafshon daryosi vodiysi, Tyan-Shan (Chu-Iliy tog‘lari, Ili Olatovi, Kungey Olatovi, Terskey Olatovi tizmalari, Norin daryosining o‘rta oqimidagi tog‘lar, Qirg‘iz Olatovi, Talas Olatovi, Ugom, Pskem, Chotqol), Farg‘ona, Susamirtau, Mog‘ultog‘). Pomir-Oloy (Oloy, Oloy vodiysi, Turkiston, Nurota, Zarafshon, Hisor, Qorategin, Vaxsh, Petra I, Darvoz, Hazrati Shoh, Ko‘xitang, Pomir, Janubiy Tojikistonning past tog‘lari) [6].


Botanik-geografik rayonlarda tarqalishi: I Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyasi: I-1-a Ugam-Pskem, I-2-a Janubiy Chotqol, I-3-b Sharqiy Oloy, I-4-a Nurota, I-5-a Shimoliy Turkiston, I-5-b Molguzar, I-5-c Urgut, I-6-a Qashqadaryo, I-6-b Tarqapchig‘ay, I-6-c Boysun, I-6-d Ko‘hitang, I-7-a Sangardak-To‘palang (1-diagramma).


II Turon provinsiyasida uchramaydi.



1-diagramma. *Z.pamiroalaica* Juz. ning Botanik-geografik rayonlarda tarqalishi.

Tog‘ tizmalari bo‘yicha tarqalishi: Pskem, Chotqol, Oloy, Nurota, Turkiston, Molguzar, Zarafshon, Hisor, Ko‘hitang, Boysun tog‘ tizmalarida tarqalgan.





3-rasm. *Z.pamiroalaica* ning balandlik rayonlar mintaqalari bo‘yicha tarqalishi

4-rasm.*Z.pamiroalaica* ning Ekologik bo‘yicha tarqalishi

Ekologik rayonlarda tarqalishi: Hisor-Oloy ochiq o‘rmonzorlari, Oloy-G‘arbiy Tyan-Shan dashtlari, Bodg‘iz-Karabil yarim cho‘llari, Pomir alp cho‘llari va tundra (4-rasm).

Xulosamizga ko‘ra *Z.pamiroalaica* Juz. tabobatda keng qo‘llanilib kelinayotgan efir moyli dorivor o‘simlik hisoblanadi. *Z.pamiroalaica* Juz. asosan Pomir-Oloy tog‘ tizmasida keng tarqalgan. Ammo “O‘zbekiston milliy gerbariysi” (TASH) noyob ilmiy ob’ektida saqlanayotgan gerbariy namunalari hamda dala tadqiqotlari natijalariga ko‘ra Janubiy Tyan-Shan tog‘ tizmalarida ham uchrayotganligiga guvoh bo‘ldik. Ushbu ma’lumotlarga tayanib *Z.pamiroalaica* Juz. o‘zining arealini kengaytirmoqda degan hulosaga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахмедов Ў., Эргашев А., Аблазов А., Юлчиева М. Доривор ўсимликлар етиштириш технологияси ва экологияси. Тошкент -2009, 12 б.
2. Жапаркулова К.А. Фармацевтическая разработка лекарственных средств на основе растительного сырья Ziziphora bungeana. Дисс. …канд. биол. наук. Казахстан, 2016. – с.14.
3. Olennikov D. N., Akobirshoeva A. A. Flavonoids and phenylpropanoids of Nepeta glutinosa and Ziziphora pamiroalaica //Chemistry of Natural Compounds. – 2016. – T. 52. – C. 909-912
4. Gbif.org (2024)Global Biodiversity Information Facility.
5. POWO (2024) Plants of the World Online | Kew Science.
6. Введенский, А. И. Определитель растений средней Азии / А. И. Введенский. – Ташкент: Изд-во ФАН Узбекской ССР, 1978. – С. 156–160.